

## GEOMETRIK SHAKLLARDAN KUB TASVIRINI TASVIRLASH

*Xudoyberdiyev Pardaboy O’skanovich*

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrası  
dotsenti, Jizzax shahri, O’zbekiston.*

*e-mail: pardaboyxudoyberdiyev@gmail.com*

**Annotasiya.** Maqola Oliy o’quv yurtlari 60110500-Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi bakalavriyat ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda qalamtasvir o’quv predmetining 1-semestrlari uchun rejalashtirilgan amaliy mashg’ulot mavzusi bo’yicha to’liq ko’rsatmalar ishlab chiqilgan. O’rta umumta’lim maktablari hamda san’atga ixtisoslashgan maxsus maktablarining tasviriy san’at o’qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

**Kalit so’zlari.** Geometrik jism, gips, perspektiva, refleks, shaxsiy va tushuvchi saya, detal.

**Annotatsiya.** Статья предназначена для студентов 1 курса бакалавриата направления подготовки 60110500–Изобразительное искусство и инженерная графика высших учебных заведений и содержит полные указания по тематике практических занятий, запланированных на 1 семестр по дисциплине «Рисунок пером». Его также могут использовать учителя изобразительного искусства в средних школах и специальных школах, специализирующихся на искусстве.

**Ключевые слова.** Геометрическое тело, гипс, перспектива, рефлекс, личная и падающая тень, деталь.

**Annotation.** The article is intended for 1st-year students of the bachelor's degree program 60110500-Fine Arts and Engineering Graphics of higher educational institutions, and contains complete instructions on the topic of practical exercises planned for the 1st semester of the subject of drawing. It can also be used by fine arts teachers of secondary schools and specialized schools specializing in art.

**Keywords.** Geometric body, plaster, perspective, reflex, personal and falling shadow, detail.

Qalamtasvir qonun-qoidalari asosida san’at sirlarini egallash oddiydan-murakkabga qarab o’sib boruvchi ketma-ketlik qonuniyatiga qat’iy amal qilishni talab qiladi. Oddiy geometrik gips shakllar va gips buyumlarni har tomonlama taxlil qilish, o’rganish hamda juda ko’p marotaba takror va takror ularning tasvirini ishlash qalamtasvir texnikasini egallash imkonini beradi.

Gipsdan ishlangan geometrik jismlar tasvirini ishlashning afzalik tomoni shundaki, ularda boshqa murakkab buyumlar va tirik jonzotlardagi kabi mayda detallar bo’lmaydi. Mayda qismlar yosh rassom diqqatini o’ziga tortib, asosiy vazifadan chalg’itishi mumkin. Geometrik jismlarda esa aynan mayda, ortiqcha

bo‘laklarning bo‘lmasligi hamda oq rangli gipsdan yasalganligi bois ham yorug‘-soya va perspektiva qonuniyatlarini o‘rganish birmuncha oson bo‘ladi.

Bir qarashda geometrik gips jismlar tasvirini ishlash tajribasiz talaba uchun juda ham oddiy, sodda mashg‘ulotdek tuyuladi. Lekin, bu ular o‘ylanidek, unchalik oson ish emas. Qalamtasvir ishlash ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lmagan talabalar ularni mexanik tarzda ko‘chirib katta hatoga yo‘l qo‘yadilar. Natijada esa yuqori bosqichda talabalar murakkab buyumlarning tasvirini ishlaganida ham shunday hato va kamchiliklar, qiyinchiliklar oldida esankirab qoladi. Shuning uchun ham oddiy geometrik jismlar yuzasini tashkil qilgan geometrik shakllar tuzilishini taxlil qilish va tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday buyum turli xil yassi shakllardan tashkil topadi. Jumladan, to‘g‘ri to‘rt burchak, uch burchak, romb, trapetsiya va shu kabi geometrik shakllar deyarli barcha narsalarning asosini tashkil qiladi. Misol uchun, piramida barcha tomonlari bir xil shakl va o‘lchamga ega bo‘lgan to‘rtta uch burchakdan tashkil topgan bo‘lsa, kub oltita bir xil shakl va o‘lchamga ega bo‘lgan to‘g‘ri to‘rt burchakdan iboratdir.

Har qanday jism uchta asosiy o‘lchamga ega bo‘ladi; balandligi, eni va qalinligi. Tasviriy san‘atning asosiy vazifasi ikki o‘lchamga ega bo‘lgan yuzada borliqdagi barcha narsalarning uch o‘lchamlik tasvirini aks ettirish hisoblanadi. Ularni tekis yuzada tasvirlash uchun esa nuqtalar, chiziq va chizgilardan oqilona va o‘z o‘rnida foydalaninish talab qilinadi.

Geometrik gips jismlarni yaxshi o‘rganish uchun ularni oyna, plastmassa kabi shaffof jismlardan yasalganini yoki qirralari oddiy simdan yasalganini ko‘rish, taxlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tajribalarni ko‘plab rassom-pedagoglar amalda sinab ko‘rishgan va yaxshi natijaga erishganlar. Geometrik jismlarni yanada yaxshi o‘rganish uchun esa talabalar uy sharoitida, mustaqil tarzda qog‘ozdan geometrik jismlarni yasab ko‘rishlari zarur. Yasagan geometrik jismlarini turli ko‘rish nuqtalaridan kuzatishi va yorug‘lik manbaiga nisbatan holatini o‘zgartirib, yorug‘-soya qonuniyatlarini taxlil qilib, jismlar hajmini yanada mukammal o‘rganishlari mumkin. Jumladan, yasagan buyumlarini yorug‘lik manбайдan uzoqlashtirib va yaqinlashtirib ko‘rib, ulardagi yorug‘-soya qarama-qarshiligi qanchalik o‘zgarishini kuzatish kerak bo‘ladi.

Bizni o‘rab turgan buyumlar olamining deyarli barchasi shar, kub, prizma, konus, silindr va shu kabi geometrik shakllarga juda ham yaqin turadi. Ammo, ular tabiatda sof geometrik shaklda kamdan kam holatdagina uchraydi. Aksincha, inson tomonidan barpo qilingan barcha narsalar esa aynan geometrik shakllarga asoslanadi. Geometrik shakllar tarkibining gipsdan bo‘lishining asosiy sababi, ular aksariyat hollarda suniy yoritgichlar bilan yoritilib, o‘quv – mashq maqsadlarida

qo’yiladi. Yorug‘ soya majmuasi (yorug‘, soya, yarimsoya, refleks, shaxsiy va tushuvchi saya, yaltiroqlik) oq buyumlarda yaqqol ko‘rinadi<sup>1</sup>.

Tasvirlashning boshlang‘ich bosqichida eng asosiy vazifa nuqtalar va chiziqlar yordamida jismlarning tekis yuzada fazoviy hajmini, konstruktiv tuzilishini to‘g‘ri topish sanaladi.

Bundan tashqari, oddiy grafit qalam yordamida turli xil geometrik shakllarning tus nisbatlarini topish talabani tartib bilan ish yuritishga o‘rgatadi. Eng asosiysi esa qalamtasvir mashg‘ulotining murakkab vazifalari hisoblangan memorlik bo‘laklari, gips rozetka, gips byust, inson portreti va gavdasi kabilarni ham soddalashtirib tasavvur qilishlariga, oddiy geometrik shakllar, tekisliklar ko‘rinishida tasvirlashlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba geometrik gips shakllar tasvirini ishlash bilan qatorda ushbu shakllarni mustaqil tarzda nafaqat qog‘ozdan, balki simdan yasab, uni buyum tekisligiga turli holatlarda qo‘yib, konstruktiv tuzilishini, perspektiv qisqarishini qog‘oz va gipsda ko‘rinmaydigan tomonlarini yakkol kuzatishi yaxshi natija beradi. Ayniqsa, uch-to‘rtta geometrik shakllardan tashkil topgan natyurmortni tasvirlashda ushbu usul juda ham qo‘l keladi. Chunki, oldi planda turgan bir buyum orqa tomondagi ikkinchi bir buyumni to‘sib qoladi, ba‘zan esa ularni ustma-ust qo‘yishga ham to‘g‘ri keladi. Buyumlarning ko‘rinmay turgan qismi, birlashgan nuqtalari, oraliq masofalari simdan yasalgan modelda ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

Geometrik shakllardan tashkil topgan natyurmortni ishlashdan oldin uni qismlari bo‘lgan kub, prizma, slindr, piramida, konus, prizma kabi jismlarni alohida ishlab tajriba orttirish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu geometrik shakllar inson kundalik turmush tarzida keng foydalaniladigan metall, sopol, chinni buyumlarning u yoki bu qismini tashkil qiladi. Qadimiy me‘moriy obidalarning ustunlariyu, minoralari, gumbazlari, osmono‘par binolar, teleminoralarining umumiy ko‘rinishi ham yuqorida nomlari keltirilgan geometrik shakllardan tashkil topadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yuqori bosqichlarda bajarilishi lozim bo‘lgan barcha vazifalar asosini talaba uchun oddiy ko‘ringan geometrik shakllar tashkil qiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, badiiy ijodning tamal toshi qalamtasvirning ilk bosqichida tasviri ishlangan geometrik shakllar ustiga qurilar ekan.

Shu o‘rinda uzoq muddatli qalamtasvir dars mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, birinchi bosqichni har ikki semestriga bir xilda beshtadan mavzu va ularning har

---

<sup>1</sup> Ботир Бойметов. Қаламтаъвир. –Т.; 2006 58-6.

biriga bir xilda 12 soatdan vaqt belgilangan. Bizningcha esa mavzularning murakkablik darajasiga qarab vaqt ajratilishi kerak. Qolaversa, har bir mavzuda bajariladigan vazifani bosqichlarga ajratib, har bir bosqich uchun aniq bir muddat belgilanishi ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Geometrik jismlarning har birini alohida chizish esa mustaqil ta’lim hisobidan amalga oshiriladi. U quyidagicha bo’lishi tavsiya qilinadi: *(kub tasvirini chizish misolida. 1-rasm)*



1. Mashg’ulot tasvirni qog’oz yuzasiga kopmozitsion jihatdan to’g’ri joylashtirishdan boshlanadi. Buning uchun har bir talaba ikki, uchta xomaki tasvir va qoralama ishlab olishi zarur. Undan keyingina asosiy qog’ozimizga modulni katta o’lchamlarini topishni boshlab, kerakli nuqtalarni va chiziqlarni belgilaymiz. Bunda jismni rakurs holati, perspektiv qisqarishi, o’zaro nisbatlari hisobga olinadi.

2. Perspektiv qisqarishni inobatga olgan holda kubni konstruksiyasini, umumiy shaklini topish. Biz uchun kubning ko’rinmaydigan qismlarini qalamni engil yurgizish orqali aniqlaymiz. Jismni konstruksiyasi to’g’ri topilmas ekan, unga qanchalik chizgilar bermaylik kerakli natijaga erisha olmaymiz. Kubni fazoviy hajmini perspektiv qisqarishlarni inobatga olgan holda qurish orqali undagi haqiqiy va tushuvchi soyalarni aniqlanadi. Bunda yorug’lik yo’nalishi ta’sirida ushbu soyalarning chegaralarini topib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Umumiy yorug’-soya nisbatlarini inobatga olgan holda kubning hajmini topish. Bu bosqichda orqa fondagi yorug’-soya nisbatlari ham inobatga olinadi. Kub turgan tasvir yuzasidagi umumiy tus nisbatlari topiladi. Undan keyin kubning to’liq tus nisbatlari topishga o’tiladi. Jismdagi eng shaffof, yorug’ joy, yorug’lik, yarim soya, haqiqiy soya, refleks va tushuvchi soya to’liq detallashtiriladi.

4. Xulosa yasash. Bunda barcha bosqichlarga yakun yasalgan holda tasvirni umumlashtirishdan boshlab, materiallilik, yaxlitlilik nazorat qilib chiqiladi.

Yuqoridagi tavsiya asosida talaba mustaqil ish sifatida avvalo, oltita bir xil to’g’ri to’rt burchakdan tashkil topgan kub tasvirini ishlaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. Baymetov. Qalamtasvir. Darslik.- T.: 2006
2. X.X. Muratov. Qalamtasvir. – T.: 2020.
3. R. Xalilov Risunok. – T.: 2013.
4. B. Boymetov Qalamtasvir. O‘quv qo‘llanma. – T.: 1997.
5. B. Tojiev, S. Mahkamova. Qalamtasvir. (Dastlabki saboqlar). Metodik qo‘llanma. Toshkent.: 2013.
6. P. Xudoyberdiyev. Qalamtasvir. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2023.